



Raqamli ta’lim muhiti — bu o’quv jarayonining barcha ishtirokchilari o’rtasidagi o’zaro aloqani raqamli vositalar, onlayn platformalar va axborot texnologiyalari orqali amalga oshiruvchi tizimdir.

U quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o’qitishning vaqt va makondan mustaqilligi;
- o’quv resurslariga tezkor kirish;
- o’quvchilarning o’zini o’zi boshqarish va mustaqil o’rganish imkoniyati;
- ta’lim jarayonida shaxsiylashtirilgan yondashuvni joriy etish.

Raqamli ta’lim muhitida o’qitishning yangi paradigmalarini joriy etish ta’lim tizimida innovatsion o’zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu paradigma o’quvchi shaxsining faolligini, ijodkorligini va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga, o’qituvchining esa metodik va texnologik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Kelajak ta’limi — bu raqamli, moslashuvchan, shaxsga yo’naltirilgan va hamkorlikka asoslangan ta’limdir.

Xulosa qilib aytganda: raqamli ta’lim muhitida o’qitishning yangi paradigmalari o’qituvchining rolini o’zgartirib, uni bilim beruvchi emas, balki yo’naltiruvchi va tahlilchi sifatida namoyon qiladi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonini yanada samarali, interaktiv va shaxsga yo’naltirilgan qiladi. Kelajakda raqamli kompetensiyaga ega bo’lgan o’qituvchi va o’quvchilar ta’lim sifatini oshirishda asosiy omil bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. To’xtayeva D. Raqamli ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: TDPU, 2023.
3. UNESCO. Digital Learning Report 2024. – Paris, 2024.
4. Xolmatova N. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022.
5. www.edu.uz – O’zbekiston Respublikasi Ta’lim portal.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-sentabrdagi PQ-4805-sonli qarori “Raqamli ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”.
7. Xodjayev, A. va boshqalar. *Pedagogik texnologiyalar va ta’limda innovatsiyalar*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
8. Jamoldinova, S.N. (2024). Oliy ta’lim talabalarida konfliktologik kompetensiyani shakllantirish va uni rivojlantirish mexanizmlari. “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muammolari va istiqbollari” Ilmiy-amaliy konferensiya, 1(1), 116-123.
9. Jamoldinova, S.N., Temirova, U.I. (2024). Talabalar konfliktologik madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida. “Ta’lim tizimini takomillashtirishda ilg’or xalqaro tajribalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjuman, 1(1), 957-962.

MARTIN LYUTER MASALLARIDAGI QAHRAMONLAR VA ULARNING IJTIMOIIY MUHITDAGI SHAXSLAR BILAN ALOQASI

Abdiyeva Bahora Ashurovna

Samarqand Davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola nemis adabiyotining yorqin vakili Martin Lyuter ijodiga doir masallar tahlilini yoritib beradi. Masallardagi qahramonlar nomlarining ijtimoiy muhitda uchraydigan odamlarga mos qilib tanlanganligini izoh va isbotlar bilan tushuntiradi.

Kalit so’zlar: masal, nemis maslchiligi, Martin Lyuter, haqiqat va yolg’on, qahramonlar nomlarining majoziy ma’nosi.

THE CHARACTERS IN MARTIN LUTHER’S FABLES AND THEIR CONNECTION TO INDIVIDUALS IN THE SOCIAL ENVIRONMENT

Annotation: This article examines the fables of Martin Luther, one of the foremost figures of German literature, focusing on the social and symbolic significance of character naming. It provides analytical explanations and textual evidence to demonstrate how the names of the fable characters were intentionally selected to reflect real individuals and social types within contemporary society.

Keywords: fable, German fabulism, Martin Luther, truth and falsehood, symbolic meaning of character names.



ПЕРСОНАЖИ БАСЕН МАРТИНА ЛЮТЕРА И ИХ СВЯЗЬ С ЛЮДЬМИ В СОЦИАЛЬНОМ ОКРУЖЕНИИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются басни Мартина Лютера, одного из выдающихся представителей немецкой литературы, с акцентом на социальное и символическое значение имен персонажей. Приводятся аналитические объяснения и текстовые доказательства, показывающие, что имена героев басен были намеренно выбраны таким образом, чтобы отражать реальные личности и социальные типы современного общества.

Ключевые слова: басня, немецкая басенная традиция, Мартин Лютер, истина и ложь, аллегорическое значение имен персонажей.

Masalshunoslik butun dunyo adabiyoti tarixi va bugunida juda kata rol o’ynab kelmoqda va buni yaqqol misolini nemis masallari talqinida ko’rib chiqishni ushbu maqolada maqsad qilib qo’ydik.

Nemis masalchiligida samarali ijod qilgan yozuvchi Martin Lyuter ta’kidlaganidek, - “Ertak haqiqatning qalbiga jazosiz kirish va hayotning haqiqiy sharoitlarini ochib berishning yagona yo’lidir, chunki haqiqat yer yuzidagi eng chidab bo’lmas narsadir”. Bu fikrni u o’z masallarida olg’a surdi va shu usulga amal qildi.

Lyuterning ertaklardagi yozilgan so’zboshilar asosan ikki maqsadni ko’zlagan: masaldan anglashilayotgan hikmatni hazilomuz muloqot orqali yoshlarga singdirish hamda ularni tabiiyalash va hokimiyatdagilarni haqiqatni ochiq oydin yuzma yuz qilmasdan siyosiy tanqid qilish, ya’ni ertak niqobi ostida haqiqatni ko’rsatish. Bu yerda dunyo tubdan yovuz sifatida tasvirlangan, unda hamma hammaga qarshi kurashadi go’yo.

Lyuterning ertaklari u yovuz deb bilgan dunyoda omon qolish strategiyasini namoyish etish va odamlarni jamiyatdagi adolatsizliklardan xabardor qilishdir.

Martin lyuterning "Baqa va sichqoncha" nomli masalini tahlil qilib chiqamiz

Qurbaqa va Sichqoncha

Sichqoncha suv havzasini kesib o'tishni xohlaydi, lekin qayerga borishni bilmay, qurbaqadan maslahat va yordam so'radi. Qurbaqa ahmoq edi va sichqonga dedi: Oyog'ingni mening oyog'imga bog'la, men suzaman va seni tortaman. Ammo ular suvga kelganlarida, qurbaqa pastga sho'ng'ib, sichqonchani cho'ktirmoqchi bo'ldi. Lekin qaysar sichqoncha suv yuzasiga qarab harakat qilayotgan bir paytda havoda qirg'iy paydo bo'ldi va ularning ikkalasini ham tumshug'i bilan suvdan olib yutib yubordi.

M. Lyuter dunyo shunday bevofo ekanligini, unda o'zini do'st qilib ko'rsatayotgan bevafo do'stlar ko'pligini o'quvchiga yetkazib bermoqchi bo'ladi. Lekin, xulosada o'sha sadoqatsizlar ham jazosiz qolmasligi xuddi masal qahramoni qurbaqadek o'z oyog'iga o'zlari bolta urishlari tasvirlab beriladi. Lyuterning so'zlariga ko'ra, yoshlar bunday ta'limot va ogohlantirishlarni kulib qabul qilib, xotirada yaxshiroq saqlab qolishadi

Qo'rqoq va yordamga ehtiyojmand sichqon suvdan kechib o'tishni xohlab turgan vaqtda uning oldidan boshqa qirg'oqqa o'tkazib qo'yishni va'da qilayotgan yolg'onchi, bevafo qurbaqaning chiqishi bir tomondan sichqonning omadsizligi, ikkinchi tomondan dunyoning yovuzlarga to'la ekanligi va uchinchi tomondan aql o'rniga ishonuvchanlik, samimiylak kabi hissiyotlar ishlatilganda ko'pincha yaxshilikka olib kelmasligi kabilar yaqqol tasvirlangan. Qurbaqa yozuvchi tomonidan "ein Schalk" deb tasvirlanadi. Bu bilan u o'zicha aqlli, aslida ahmoq odamlarga ishora qilmoqchi bo'lgan. U sichqonni "qo'limga tushdi" deb o'ylab uni cho'ktirib yubormoqchi va undan keyin yemoqchi bo'ladi. Lekin o'grini qaroqchi urib, qurbaqaning o'zi ham o'zi qazigan choxga yiqildi ya'ni sichqonga qo'shilib yirtqich qushga yem bo'ldi. Yirtqich qush shunday qilib ko'r-ko'rona g'ayrat bilan birga yomon niyatli xiyonat nimaga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi.

Bunda yozuvchi nafaqat qurbon balki jinoyatchini ham ogohlantirishga urinayapti. Soda sichqonni o'ta ishonuvchanlik yaxshilikka olib kelmasligidan ogohlantirayotgan bo'lsa, axmoq qurbaqaga esa o'z va'dasida turish muhim ekanligi, dunyo qaytar dunyo ekanligini, biror kishiga yaxshilik qilsak yaxshilik yomonlik qilsak yomonlik qaytishini tushuntiryapti.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Luther, Martin. *Die Fabeln Äsops in deutscher Bearbeitung*. Hrsg. von Jakob Grimm. Berlin: Reimer, 1832.
2. Kaufmann, Horst. *Luther und die deutsche Fabeltradition*. Leipzig: Reclam, 1978.
3. Richter, Peter. *Die Entwicklung der Fabelmoral vom Äsop bis Luther*. München: Fink Verlag, 1995.



4. Äsop. *Fabulae Aesopiae*. Leipzig: Teubner, 1906.

“O‘ZMILLIYBANK” AJDA KREDITGA LAYOQATLILIK DARAJASINI OSHIRISHDA GAROV TA’MINOTINI SHAKLLANTIRISH

Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “O‘zmilliybank” AJda kreditga layoqatlilik darajasini oshirish masalalari va uni samarali amalga oshirishda garov ta’minotini shakllantirish ishlariyoritilgan. Shuningdek, “O‘zmilliybank” AJda kreditga layoqatlilik darajasini oshirishda garov ta’minotini shakllantirish yuzasidan xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Tijorat banki, kredit, kreditga layoqatlilik, kreditga layoqatlilik darajasi, garov, garov ta’minoti.

ФОРМИРОВАНИЕ ЗАЛОГОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КРЕДИТОСПОСОБНОСТИ В АО «УЗМИЛЛИЙБАНК»

Джуманиязов Куванчбек Аमतжонович

независимый научный сотрудник Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения уровня кредитоспособности в Национальном банке Узбекистана и формирования залогового обеспечения для его эффективной реализации. Также даны выводы по формированию залогового обеспечения для повышения уровня кредитоспособности в Национальном банке Узбекистана.

Ключевые слова. Коммерческий банк, кредит, кредитоспособность, уровень кредитоспособности, залог, обеспечение.

FORMATION OF COLLATERAL TO INCREASE CREDITWORTHINESS IN JSC "UZMILLIYBANK"

Jumaniyazov Kuvanchbek Amatjonovich

independent researcher of the Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article discusses the issues of increasing the level of creditworthiness in the National Bank of Uzbekistan and the formation of collateral for its effective implementation. Also, conclusions are given on the formation of collateral for increasing the level of creditworthiness in the National Bank of Uzbekistan.

Key words. Commercial bank, credit, creditworthiness, creditworthiness level, collateral, collateral.

Bugungi kunda mamlakatimizda moliyaviy tizimni mustahkamlash, banklarning kredit portfellarini sifatli shakllantirish va iqtisodiyotning real sektorini samarali moliyalashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, mamlakatimizda kreditga layoqatlilik darajasini oshirishda garov ta’minotini shakllantirish borasida tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 22-apreldagi O‘RQ-1060-son Qonuni qabul qilindi [1]. Ushbu qonun kreditorlarning garovga qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan huquqlari ustuvorligini ta’minlashga, garov narsasini suddan tashqari tartibda realizatsiya qilish tizimini takomillashtirishga, majburiyatlarni garovga qo‘yilgan mol-mulk hisobidan undirish jarayonlarini soddalashtirishga va kredit tashkilotlarining kredit portfelidagi muammoli aktivlar ulushini kamaytirishga xizmat qiladi. Banklarda kreditga layoqatlilik darajasini oshirishda garov ta’minotini shakllantirish uchun mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf qilish lozim. Jumladan, mamlakatimizda bank amaliyotlarini tashkil etishda qator muammolar mavjud. Xususan, garov ta’minotini shakllantirish, baholash va tartibga solish jarayonlarida garovning aniqlangan bahosi va real bahosi o‘rtasidagi farqlanish mavjudligi, tartibga solish mexanizmlarining to‘liq ishlamasligi kabilar shular jumlasidandir [2].